

## IMKONIYATI CHEKLANGAN MAKTAB INTERNATINING O'QUVCHILARIGA ONA TILI VA O'QISH FANINI O'QITISHDA NOANANAVIY USLUBLARDAN FOYDALANISH

*Mengziyaeva Mengdona*

*Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan  
(aqli zaif) bolalar uchun 68-sonli maktab internati o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan (aqli zaif) bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilariga o'qish va ona tili fanlaridan darslarni olib borishning noan'anaviy usullari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** fonetika, tovushlar, o'quvchi, o'qituvchi, dars, boshlang'ich ta'lim, texnologiya, metod, ona tili, aqli zaif.

Hozirgi vaqtda aqli zaif bolalarni yordamchi muassasalarda tarbiyalash va o'qitish masalasi dolzarbdir. Maxsus maktabdagi o'quv jarayoning murakkabligi shundan iboratki, natija ommaviy maktabdagi kabi sezilmaydi. Talim, bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni imkoniyati cheklangan o'quvchiini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta'lim jaroyonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi.

Ta'lim - o'quvchining bilish qobiliyatini o'stiruvchi asosiy omildir. O'quvchilar qobiliyatini o'stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzda namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon defektologiyasi korreksion ta'lim – tarbiya tasiri ostida ayrim nuqsonlar to'g'irlansa, ayrimlarini yumshatish, ayrimlarini esa kompensatsiya qilishga erishilmoqda. Bu borada mamlakatimizda bir qancha ilmiy metodik ishlar mavjud bo'lib ular amaliyotda tastiqlanmoqda. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga maktab internatlarda ona tili va o'qish fanlarini o'qitishda noan'anaviy uslublardan foydalanish alohida etibor talab etadi..

Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qituvchi asosiy o'rinni egallaydi. Ona tili dasturi quyidagi bo'limlarni ichiga oladi:

- Savod o'rgatish, va nutq o'stirish.
- Sinfda, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish.
- Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.

Ona tili darslari o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, ularda axloqiy va estetik tassavvurlarni shakllantirish, nafasat hissini tarbiyalash, mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish, bilim manbai bo'lgan kitobni

sevish kabi muhim masalalarni ham hal etishini nazarda tutadi. «Fonetika, grammatika, to'g'ri yozuv va nutq o'stirish» dasturi, «Tovushlar va harflar», «So'z», «Gap», «Bog'lanishli nutq» va «Husnixat» bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Mana shu bo'limlarni imkoniyati cheklangan o'quvchiga o'qitish jarayonida o'qituvchi o'zining bor mahoratini ko'rsatib, ona tili darslarini noan'anaviy tarzda o'tib, o'quvchilarni qiziqitira olishi, shu bilan birga ularning grammatik savodini rivojlantirib borishi lozim. Bu borada Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumanidagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan (aqli zaif) bolalar uchun 68-sonli maktab internatida o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda noananaviy metodlarni qo'llangan holda darslar tashkil etilmoqda.

Darslarni o'tish jarayoni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa bilan yaratiladi, an'anaviy dars - ko'p hollarda ta'lim jarayoning birdan-bir modeli bo'lib qo'lmoqda. An'anaviy dars – passiv dars berish usuli bo'lib, darsning samaraliligi uni rejalashtirilishiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo'lgan talablarda o'zining aniq ifodasini topadi.



**1-rasm. Dars jarayonidan lavha**

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-arbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
- o'quvchilarning qiziqishlari, layoqatini hisobga olish va o'quvchilarning individual kamchilliklarini korreksiyalash asosida;


O'quvchilarning bilimlarni puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

- o'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog'liklarni o'rnatish;
- ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;
- shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o'quv-tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida mantiqiyli va emotsionalligini hisobga olish.
- pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
- zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish;
- o'quvchilarning intilishlariga va ulardagi imkoniyatlarga qarab darslarni tashkil etish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish;

Noan'anaviy darsda vaqt talabi dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanishi bilan belgilansa, an'anaviyda dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.

Noan'anaviy dars turlaridan foydalanib dars o'tish, imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ham juda katta natija beradi. Har bir dars jarayonida o'qituvchi o'z darsida oldiga qo'ygan maqsadlariga etisha oladi.

Noan'anaviy dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi o'quvchilarning mavzuni esda saqlashiga yordam beradi .



**2-rasm. Noan'anaviy usulda o'tilayotgan dars jarayonidan lavha**

Noan'anaviy darslarni o'tish uchun o'qituvchi ham o'quvchi ham puxta tayyorgarlik ko'rishlari kerak. Ya'ni bir mavzuga o'qituvchi ko'rgazmali qurol, rangli rasmlar, tarqatma materiallar (kartochkalar), kesma harflar, testlar, boshqotirmalar olib kelishi zarur. Jumladan, kesma harflar bilan ishlash 1-sinfda kesma harflardan tovush va harf tanish, bo'g'in, so'z yozishda foydalansa, 2-, 3-, 4-sinflarda ulardan so'zlarni to'g'ri yozishda bo'g'in ko'chirishda foydalanadi. Lekin bu kesma harflar faqat o'qituvchigina emas, balki har bir o'quvchida ham bo'lishi lozim. Ular mana shu harflar bilan 2, 3 daqiqa ishlari davomida 5 ta, 6 ta so'zni to'g'ri yozilishini bilib oladilar. Ona tilidan noan'anaviy darslarda boshqotirma rebuslardan foydalanilsa, ular o'quvchining tafakkurini charxlaydi, o'ylashga fikr bildirishga o'rgatadi. Bular albatta oddiydan murakkabga qarab borishi lozim.



### **3-rasm. Dars jarayonidan lavhalar**

Rebus boshlang'ich sinf o'quvchilariga juda sodda ko'rinishda berilib, surat belgilar asosida yechiladigan boshqotirmalardir. Rebuslarni hal etish uchun avvalambor suratda nima tasvirlanganini topish lozim bo'ladi, shundan so'ng shartli belgilar asosida yangi so'z hosil qilinadi. Shu tariqa rebus yechiladi va nima so'z yozilganligi topiladi. Krossvord o'yinini o'tkazish uchun o'quvchilar yoshiga mos holda juda sodda ko'rinishda krossvordlar tuzib olinadi. O'quvchilar mustaqil ravishda javoblarni topib yozadilar. Dastlab krossvordlar o'qituvchi boshchiligida hal etiladi.

O'quvchilarda krossvordlarni hal etish ko'nikmalari paydo bo'lgandan keyin o'qituvchi nazorati ostida mustaqil yozadilar. Men quyida imkoniyati cheklangan o'quvchilarga dars berishda o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi texnologiyalarning ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida tavsiya berib o'taman;

«TARMOQLAR» metodi – imkoniyatlari cheklangan o'quvchini mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan. Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan

avval o'quvchilar fikrlashi faoliyatini jadallashtirishga hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustaxkamlash, umumlashtirish imkoniyati cheklangan o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«3x4» METODI - imkoniyati cheklangan o'quvchilarni erkin fikrlashga, keng doirada turli g'oyalarni bera olishga, dars jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishiga qaratilgan.

«BLIS-O'YIN» metodi - harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

«INTERVYU» texnikasi - o'quvchi savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

«AQLIY HUJUM» metodi - biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Bu metod imkoniyati cheklangan o'quvchining aqliy rivojlanishidagi nuqsonlarini bartar etishga yordam beradi. U to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda o'quvchini erkin va ijodiy fikrlashga o'rgatadi..

«TUSHUNCHALAR TAHLILI» texnologiyasi imkoniyati cheklangan o'quvchilarni mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, shuningdek, o'z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o'rgatadi.

Xuolsa qilib shuni aytish mumkinki imkoniyati cheklangan o'quvchilarga o'qish va ona tili darslarni davr talabiga moslagan holda interfaol metodlar asosida o'tish bolalarning shaxsiy sifatlarini namoyon bo'lishiga imkoniyat yaratadi. O'quvchilarda olgan bilimlarini tahlil qila olish va hayotda qo'llay olish ko'nikmalari rivojlanadi. Boshlang'ich sinflarda darsning samaradorligi va sifatini oshirish uchun yuqorida keltirilgan metodlarning barchasini AKT bilan birgalikda o'qitilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarining o'qish va ona tili fanlariga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Novotortseva. N.V. Aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik – pedagogik tekshirish metodologiyasi : o'quv qo'llanma . 2008 yil . YAGPU nashriyoti.

2.Konenkova I.D “Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar nutqini tekshirish. M.Gnom nashriyoti 2005 yil

3.Dadajonova Z.X, Kenjaboyeva M.K. “Boshlang’ich sinf ona tili darslarida noan’anaviy ta’limning samaradorligi”. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) November 2022 / Volume 3 Issue 11. 670-673 bet.

4.Sayidahmedov N.S. Ochilov A. Yangi pedagogic texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. RTM 2000-yil

5.Saidaxmedov N.D “Yangi pedagogik texnologiyalar”2003 yil

6.Nishanova Z.J. “Boshlang’ich ta’lim darslarida noan’anaviy usullardan foydalanish” Proceedings of Ingenious Global Thoughts An International Multidisciplinary Scientific Conference. November 29th, 2020. 28-30 bet

7.Nazirova N.N, Axmadjonova Z.A. “Ta’lim jarayonida noan’anaviy darslar metodikasi”. Scientific progress. Volume 3 | issue 8 | 2022. 15-19 bet